

## ISAJON SULTONNING “MA’SUMA” ROMANI TAHLILI

**Rustamova Aziza Komiljon qizi**

*GulDU Filologiya fakulteti*

*42/24-guruuh talabasi*

*e-mail: azizarustamova30@gmail.com*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada XX asrdagi siyosiy harakatlar, o‘zbek teatirining shakllanishi va maqsadi o‘sha davr yozuvchilarining holati ushbu ramon talqinida o‘rganiladi. Mazkur romanda tariximizning ”jadidlik” deb atalgan eng murakkab davri hamda birinchi o‘zbek aktrisasi M’asuma Qoriyevanining fojiyali taqdirlari hikoya qilinadi.

**Kalit so‘zlar:** Teatr, drama, jadidchilik harakati, milliy qadriyatlar, sahna asarlari, yozuvchilar, urush jarayonlari, qatag‘on siyosati, kompozitsion vositalar.

Barcha yozuvchilarning yozgan asarlarida hayot bilan bog‘liq bo‘lgan majoziy, ramziy yoki real voqeа-hodisalar har qanday asarning tub negizi sanaladi. Bunday asarlarda biron bir voqeа-hodisa yoki biron bir shaxsning hayot tarzi yoritiladi. Ana shunday asarlardan biri ”Ma’suma” romanidir. Yozuvchi nima uchun aynan bu asarga ”Ma’suma” deb nom bergan?

Bu sarlavha an’anaviy sarlavha turiga kiradi. Chunki bu romanda asarning boshlanishidan to tugaguniga qadar asar bosh qahramoni Ma’sumaning hayot yo‘li ochiq-oydin aks ettiriladi. Bu ayol obrazi orqali o‘zbek ayoliga xos bo‘lgan barcha samimiyl fazilatlarni ko‘rish mumkin. Xalqi va oilasiga eng muhammi kasbiga sadoqatli va uni yaxshi ko‘rvuchi ayol timsoli sifatida gavdalantirilgan. Biz tubdan bu roman orqali o‘zbek teatrining shakllanish tarixi, jadidchilik harakati va uning guruhlarga bo‘linishi, sovet mafkurasi ta’sirida nomi kamdan kam tilga olingan yoki umuman eslanmagan ziyorilar XX asr 40-yillardagi yozuvchilarning holati hamda ”bosmachilar” haqida berilgan tarixiy haqiqatlarni badiiy tarzda tahlil qilamiz. Ushbu asarni yurtimiz tarixidagi qora kunlarning zamonaviy talqini, milliy teatirimizning badiiy tarixi deb atasaga bo‘ladi.

Ushbu romanda o‘z davrining eng ziyorili oilalaridan biri bo‘lgan Abduvohid Qoriyevning oilasi va uning ayanchli taqdirlari haqida so‘z boradi. Yozuvchi Abduvohid Qoriyevni o‘ziga xos jihatlar bilan tasvirlaganki, hatto uning oila a’zolarini ham e’tiqodda mustahkam, diniy barkamol, iymonli va halol insonlardan ekanligi yaqqol sezilib turadi. Abdulla Qodiriy ham o‘zining asarida Yusufbek hojini aynan hojiligini yuksak maqomga ko‘tarib tasvirlaydi. Abduvohid Qoriyevni tasvirlashda yozuvchi beixtiyor Yusufbek hoji obrazidan tasirlanganini sezish qiyin emas. Abdivohid qori mashhur ulamo jadidchilik davrining ”qadimchi” laridan bo‘lsa, o‘g‘illari Bositxon Qoriyev va Boisxon Qoriyevlar ”yangilikchi” ziyorilardan edi. Biz ”jadid” va

”qadimchi” deb ajratishimizga Abdulla Avloniy quyidagicha fikir bildiradi o‘z tarjimaiy holida: ”Shul zamonda yerli xalqimiz o‘rtasida eskilik va yangilik (jadid-qadim) janjali boshlandi. Gazet o‘quvchilarni mullalar ”jadidchi” nomi bilan atar edilar. Men ham shul qatoriga kirdim” [1. Matn/A.Avloniy/Nashrga tayyorlovchi Begali Qosimov. – Toshkent: Zabarjad Media, 2022. 432-bet].

M’asuma Qoriyeva ilk marotaba G’.Zafariyning “Halima” spektaklda rol ijro etgan. Rol o‘ynayotgan aktyorlar bevosita omma bilan gaplashib ijro etadi. Bundan ko‘zlangan maqsad xalqning fikrini bilish, xulosa chiqarish, qaysidir ma’noda o‘z aksini “oyna” qilib ko‘rsatish bo‘lgan. Sovet tuzumining qatag‘on siyosati tufayli bir qancha ziyorilarimiz qamaladi. Bu siyosat Qoriyevlar xonodonini ham chetlab o‘tmadi. Oila a’zolari “xalq dushmani” deb e’lon qilingandan keyin Ma’suma Qoriyavaning teatirdagi faoliyatida ham bir qancha to‘sqliar va muammolar yuzaga kela boshlaydi. Aktrisalikdan xo‘jalik ishlariga tushiriladi. Bu siyosat tufayli teatrda qo‘yiladigan bir qancha asarlar olib tashlanadi ba’zilarining nomi o‘zgartiriladi. Ana o‘sha tahlikali davirda yozuvchilar qaysi holatda bo‘lganligi ham tasvirlangan. “Komil Yashin “Boy ila batrak” nomini “Boy ila xizmatchi” deb o‘zgartirib qaytadan yozadi. [Ma’suma romani. 167-bet]

Ma’suma Qoriyevaning eri ham qaynotasi ham o‘ldiriladi, qaynog‘asi esa surgun qilinadi. Ikkinci jahon urushi boshlangandan so‘ng kimda kim o‘z ixtiyori bilan frontga borsa oqlash va’da qilinadi. Shu sababli Ma’sumaning ham ikki og‘li ham frontga otlanadi. Affuski, bu ikki o‘g‘lon o‘z nomini oqlash yo‘lida qurban bo‘lishadi. Ulardan faqat “Qizil yulduz” va “Qizil bayroq” ordenlari keladi xolos. Ma’suma Qoriyeva esa iztirobga to‘lib “Mana bolalarim... Nomimiz ham oqlandi,”- deydi. Lekin Ma’sumaning o‘zi ham bu yo‘lda qurban bo‘ladi.

Asar to‘laqonli ravishda muallif tilidan bayon qilinadi. Bu romanda kompozitsion vositalar muallif tili, personaj tili, peyzaj, portret, interyer va leksik resurslar( metofara, metonimiya, dialaktizm, jargon, vulgarizm, varvarizm) kabi vositalar bir biriga bog‘liqidir. Bu asarda roviy tili keltirilmagan. Bu kompozitsion vositalar har qanday asarning to‘laqonli ravishda bayon qilishini taminlaydi. Eng muhim har qanday asarni o‘qigan kitobxon ana shunday vositalar orqali asarda bo‘layotgan voqeа – hodisalarini tez anglab oladi. Bundan tashqari asarning mukammaligini ham oshirishga yordam beradi. Tog‘ri, kompozitsion resurslar ko‘p, lekin hamma yozuvchilar ham bu vositalardan unumli yoki o‘z o‘rnida foydalana olmasligi mumkin. Lekin Isajon Sulton “Ma’suma” romanida kompozitsion vositalardan va har bir detallardan mahoratli ravishda foydalangan.

Yuqorida aytilgan kompozitsion vositalarga to’xtaladigan bo’lsak, muallif tili – asardagi barcha voqeа – hodisalar shu asarni yozgan yozuvchi tomonidan bayon qilinadi. Masalan, “Ma’suma “Xo‘p bo’ladi” deb, ayvon zinapoyasi yonida, qoq yerda

g’isht ustiga qo’nqaytirilgan samovar tomon ketadi. Boya payraha qalab, suvini qaynatib qo’ygan edi.”

Personaj tili – asardagi qahramonlar tomonidan bayon qilinadigan voqealar hisoblanadi. “ Kuldiraverib ichimni og’ritib yubording, qiz bo’lmay qol. Qayerdan bunaqa xislating bor seni, o’ziday qilasan – qo’ysan-a! Senga uylangan yigit ajalidan emas, kulgidan o’ladi! Endi anavi, tomoshada o’rganib olganing ashulangni ayt, yuraklarning chigili yozilsin! ”, bu personaj tiliga misol bo’la oladi.

Peyzaj – ko’pgina asarlarda peyzaj g’oyatda muhim ro’l o’ynaydi. Bunda tabiat va undagi manzaralar tasvirlanadi. Yozuvchi tabiat lavhalarini chizish bilan o’zining tabiatga munosabatini ifodalaydi: tabiat go’zalligi, boyligi va qudratini ta’rif-tavsif etadi, qalamga olingan joylar tabiatning o’ziga xos xususiyatlarini ochib beradi. Misol uchun, ” Ko’klam shamolining mavjлari ko’cha-ko’yni, tomlarni, ariqlar yoqasini o’ynoqlab kezadi. Uning sho’xliklari maysa-yu o’t-o’lanlarning har yer – har yerda, ahyon – ahyonda siltalanib qolishidan bilinadi. Ko’zga ko’rinmas bu mavjлar hademay gulto’kar shamolesib qolishidan darak.” Bu manzara tasviri orqali yozuvchi tabiat holatini mukammal ravishda kitobxonga yoritib berolgan.

Portret – insonning ichki ruhiy olami bilan bog’langan holda aniq bir obraz yaratilishidir. Bir so’z bilan aytganda insonning tashqi ko’rinishini tasvirlovchi kompozitsion vosita sanaladi.

– Beting muncha tiniq, qiz tushmagur? Qaymoqli sut bilan chayganmisan?

– O’zi shunaqa! – deb javob qiladi oq yuzli, kipriklari uzun, bejirim yuzidagi kulgichi o’ziga yarashgan Ma’suma, ko’zlari chaqnab. U sho’x va hissiyotli qizgina, olovday yonib turadi, biroq xotinlarning so’zlaridan qizarib-bo’zaradi.

Isajon Sulton Ma’sumani shunday ko’rinishda tasvirlaydi.

Intyerer – adabiy asarda ishtirok etuvchi shaxslar bevosita harakat qiladigan maydon – uy-joy tasviri ham muhim g’oyaviy-kompozision vazifani o’taydi. Uy-joy tasviri, xuddi tabiat manzaralaridek, asarning umumiyligi g’oyaviy mazmunini yoki uning ayrim jihatlarini kengaytirishga yordam beradi.

“ Eski jo’vordan pastga chap tomonga yurilsa, past-baland ko’chalari qo’ng’ir-qiyshiq, uzayib ketgan eski mahalla keladi. Bir arava zo’rg’a siqqulik ko’cha tomonga bolaxonalar chiqib qolgan. Tomlar bir-biriga tutash , to mahalla adog’igacha tommatom borsa bo’ladi. Kochalar tor, past-baland ba’zi joylarda ikki kishi zo’rg’a siqqulik so’qmoqlar ham ko’zga tashlanadi.”

Leksik resurslar asarni ta’sirchanligini boyitishga yordam beradi. Bunda har bir narsani yoki voqeani bir-biriga taqqoslash, o’xshatish, hissiyotlarni bildirish va shevaga xos bo’lgan so’zlar orqali asarni ta’sirli qiladi va boyitadi.

Xulosa qilib aytganda, I. Sultonning bu asarining hajmi ko’p qamrovli emas, lekin bu asarni o’qigan kitobxon asarning ichki dunyosiga kirib ketishi aniq. Chunki

bu asar shunday yozilganki, har bir personajlarning xatti – harakati, turmush tarzi, ularning kechinmalarini har qanday insonni o‘ziga jalb qila oladi.

Xalqimizning II jahon urushi davrida boshidan kechirganlari Ma’suma obrazi orqali ko‘rsatib berilgan. Asar o‘z o‘rnida bugungi davrning qadriga yetish va oilalarning mustahkamligi yo‘lida ahamiyatlidir. Shunday ekan bu asar orqali Vatanga va oilaga sadoqatni, har birimizning burchimiz bo‘lgan fazilatlarni ko‘rishimiz mumkin. O‘zbek ayoliga xos bo‘lgan barcha burch va vazifalar to‘liq yoritib berilgan. Romanda nafaqat teatrning shakllanishi, qatog‘on siyosati bir oilaning ayanchli taqdiri o‘laroq yaqinlaridan, jigarbandlaridan ayrilgan onaning iztirobi ham yorqin aks ettirilgan.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. D.Quronov. Adabiyot nazaryasi asoslari. – Toshkent: Navoiy universiteti. 2018-yil.
2. Т.Бобоев. Адабиётшунослик асослари. – Toshkent: Ўзбекистон. 2002 йил
3. A.Qodiriy. O’tkan kunlar. Nashiryot. – Toshkent, Sharq: 2018-yil.
4. I.Sulton. Ma’suma. – Toshkent, 2024-yil.